



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Barnoxo'jayeva Gulbahor

*Narpay tuman Xalq ta'limi bo'limi
boshlang'ich ta'lim metodisti*

MILLIY O'QUV DASTURI VA BAHOLASH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi o'quv-me'yoriy hujjatlari, o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholash mezonlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlari: milliy o'quv dasturi, o'quv-me'yoriy hujjat, o'quv reja, o'quv dasturi, o'qitish metodologiyasi, baholash o'quvchi, ijodkorlik.

Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi o'quv-me'yoriy hujjatlari: o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, darsliklar, o'qituvchilar uchun qo'llanma-O'qituvchi kitoblari, o'quvchi ish daftari, o'quv-metodik materiallari ta'lim resurslarini ishlab chiqish, takomillashtirish va rivojlantirish uchun asos bo'ladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradi.

Shu paytgacha ona tili va o'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qoling holatda tashkil etildi.

"Ona tili" va "O'qish" fanlarining integratsiyasi to'liq ta'minlangan XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor berilgan



Matnlar va she'rlar bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy va informativ, ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat

Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Oldingi o'qish fanidagi matnlar asosan mavhum tushunchalardan iborat edi Hozirgi darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar mavjud va eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.

O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirivchi topshiriqlar, matnda ifodalangan ma'lumotlarga, didaktik elementlarga qaratilar edi

Ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'ld qoidalarni yod oldirish edi

Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Til strukturasi o'rgatishga qaratilgan

Bugungi ta'limda ona tili o'qish savodxonligining maqsadlaridan biri til strukturasi o'rgatishga qaratilgan

Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan

Matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan.

Yangi darslikda yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldiriladi.

Bugungi ta'limdagi Milliy dasturda o'qituvchi baholaydi

- 1) Formativ baholashni amalga oshiradi
- 2) O'quvchilarning bahosini har doim ham e'lon qilmaydi
- 3) O'quvchilarning javobidan kerakli xulosalar chiqaradi
- 4) O'quvchilarni summativ baholashga tayyorlab boradi
- 5) Izoh-mulohazalar berib boradi

Ona tilida nimalar baholanadi?

Og'zaki nutq

O'qib tushunish

Tinglab tushunish

Yozma nutq

Lingvistik ko'nikma

Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan baholashda nimalar o'zgarimoqda?

. 1-2- sinflarda uyga vazifalar yo'q.



Tushuntirish: birinchi sabab ularning amalda samarasiz topshiriqqa aylangani bo'lsa, ikkinchidan darslardan charchab borgan quyi sinf o'quvchilari uyda ko'proq dam olishlari lozim deb qaralmoqda. Samarasiz topshiriq deganda o'quvchi bajarib kelgan uyga vazifalar yo'l-yo'lakay tekshirilayotgani yoki deyarli tekshirilmayotgani, o'quvchi xato va yutuqlarini yetarli anglab olishi uchun vaqtning yetishmasligi nazarda tutilgan.

Choraklik baholarni kundalik olingan baholarga qarab qo'yilmaydi.

Tushuntirish: endi kundalik yig'ilgan baholar choraklik bahoga ta'sir qilmaydi. Chunki kundalik baho rivojlantiruvchi ahamiyatga ega, choraklik baho esa erishilgan marrani tekshirish uchun xizmat qiladi. Bu ikki baholashni o'zaro qorishtirish sifatga ta'sir qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsligining afzallik jihatlari:

Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bor.

Darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Yillik bahoni choraklik baholar asosida qo'yish amaliyoti bekor qilinmoqda.

Tushuntirish: yil oxirida o'qituvchi o'quvchilar uchun qo'yilgan minimal talabga javob bera olishini tekshirish uchun imtihon o'tkazishi lozim. Chunki har chorakdagi baho bu minimal talabni bajara olishi yoki olmasligini yaqqol ko'rsatib bera olmaydi.

Bahoga jazo yoki rag'bat quroli emas, rivojlantirish vositasi sifatida qarash kerakligi tavsiya etilmoqda. Bolalarni baho bilan qo'rqitishni bas qilish, ularga imkon qadar past baho qo'ymaslik, toki topshiriqni yaxshi bahoga bajarib kelmaguncha baholamay turish tavsiya etilmoqda.

O'quvchiga qo'yilgan har bir bahoga izoh-mulohaza berish talab etilmoqda.

Tushuntirish: o'quvchi olgan bahosining adolatli ekaniga ishonch hosil qilmas ekan ta'limga nisbatan motivatsiyasi so'nib boraveradi. Buni isbotlashning eng yaxshi usuli samarali yetkazilgan izoh mulohazadir. O'quvchi izoh-mulohaza orqali kamchilik va yutuqlarini yaqqol ko'ra oladi. Keyinchalik qanday harakat qilishi kerakligi haqida xulosalar chiqarib oladi.

O'qituvchi bahoni o'quvchi sinf bitiruvchisi uchun qo'yilgan malaka talabni qanchalik yaxshi bajarayotganiga qarab qo'yishi amaliyoti joriy qilinmoqda.

Tushuntirish: Milliy o'quv dasturida malaka talablari qismi mavjud. Bu malaka talablari o'qituvchi kitobida ham aks etgan. O'quvchilar ana shu malaka talablariga javob bera olishi kerak. O'qituvchi endilikda shuni baholaydi. Ya'ni o'quvchining qoidani bilishi emas, o'sha qoidadan xulosa chiqarib amalda qanchalik to'g'ri foydalanishi inobatga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy o'quv dasturi 2020 yil

1. Azimova I., Mavlonova K. va b.q. Ona tili va O'qish savodxonligi. 1- sinf Yangi nashr 2021- yil Toshkent